

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KABILOVA DILRABO SALOXIDINOVNA**

**TIKUVCHILIK KORXONALARI TEXNOLOGIK JARAYONLARINI  
LOYIHALASHNING AXBOROT TA’MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
Of technical sciences**

**Kabilova Dilrabo Saloxidinovna**

Tikuvchilik korxonalari texnologik jarayonlarini loyihalashning

axborot ta'minotini ishlab chiqish.....3

**Kabilova Dilrabo Saloxidinovna**

Разработка информационного обеспечения проектирования

технологических процессов швейных предприятий.....23

**Kabilova Dilrabo Saloxidinovna**

Development of information design for ensuring technological processes

of sewing enterprises.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....46**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KABILOVA DILRABO SALOXIDINOVNA**

**TIKUVCHILIK KORXONALARI TEXNOLOGIK JARAYONLARINI  
LOYIHALASHNING AXBOROT TA‘MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

**05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4711 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasidagi (www.) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bazarbayeva Guzal Gulimovna**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdukarimova Mashhura Abduraimovna**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Temirova Gulnoz Ibodovna**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01- raqami Ilmiy kengashning 2026 yil 23 yanvar soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100 Toshkent sh. Shohjaxon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks 253-36-17; e-mail: [titlip\\_info@edu.uz](mailto:titlip_info@edu.uz). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№269-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100 Toshkent sh. Shohjaxon-5, tel.: (+99871) 253-08-08

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 7-yanvar kuni tarqatildi  
(2026 yil 7-yanvar №269 raqamli reestr bayonnomasi).



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yengil sanoat mahsulotlari assortimentini hajmi 25% ga ortishi kutilmoqda, bu mahsulotlarga bo'lgan talabni yildan-yilga oshib borishidan dalolat beradi. Yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar qatoriga AQSh, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Indoneziya kabi davlatlar kiradi. Dunyo miqyosida to'qimachilik bozori hajmi 2024-yilda 1,840 trillion, 2025-yilda bu ko'rsatkich 1,976 trillion dollarni tashkil etdi. Shu jihatdan, tikuvchilik sanoatida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, yengil sanoat mahsulotlarining yangi assortimentini, xususan hozirgi davr tarmoqlarining, tikuvchilik sanoatining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va eksport salohiyatining oshirilishida muhim ahamiyatga ega.

Jahonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiiy xomashyolardan oqilona foydalanish, yengil sanoat mahsulotlarining yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, zamonaviy raqamli platformalar asosida ishlab chiqilgan axborot tizimlari orqali texnologik jarayonlarni loyihalash, rejalashtirish, nazorat qilish va ularning bajarilishini real vaqt rejimida kuzatib borish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini rivojlantirish, avtomatlashtirilgan liniyalar (Computerized Automated Sewing Lines — CASL) tizimini yaratish va joriy etish, mahsulot sifatini barqaror saqlash, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish hamda, xomashyo sarfini kamaytirishni texnologik yechimlarini tavsiya etish va nazariy jihatdan asoslash, xomashyo sarfi kam, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yengil sanoat mahsulotlari yangi assortimentini olish texnologiyasini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston-2030" strategiyasida, jumladan, "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, tikuvchilik korxonalarini faoliyati jahon standartlari talablariga muvofiq yangi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini tez va optimal tashkil etishni, ishlab chiqarish korxonalarini texnologik jarayonlarida assortiment o'zgaruvchanligini ta'minlaydigan zamonaviy asbob-uskunalar ya'ni dasturli boshqaruv tizimidagi avtomatlashtirilgan liniyalarini loyihalash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, tikuvchilik korxonalarini avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni loyihalashning axborot ta'minotini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> 2023-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston-2030" strategiyasida, jumladan, "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot yo'nalishi yuzasidan izlanuvchilar ilmiy ishlari tahlil qilindi. Klyuyeva R.G., Gordieva T.A., Parxomenko Yu.V., Illarionova T.I., Komissarov O.Yu., Buynovskaya Ye.V., Mezenseva T.M., Murigin V.Ye., Legkix S.A., Bondareva M. V., Rimar Y. V., Uryadnikova I.V., Raxmatullin A. M., Proskurdina T.A., Subbotina Ye.V., Kazanseva G.V., Alekseenko I.V., Mokeeva N.S., Nigmatova F.U., Shomansurova M.Sh., Sharipova S.T., N.R.Yusupbekov, F.B.Alam, Dubravko Rogale, Phan Thanh Thao va boshqa izlanuvchilarning ishlari batafsil o'rganildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli dasturli boshqaruvga ega avtomatlardan foydalangan holda tikuvchilik korxonalarining texnologik jarayonlarini loyihalash uchun axborot ta'minotini ishlab chiqish masalalari qisman o'rganilgan bo'lib, bu keyingi tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Tikuv buyumlari turli assortimentlarini ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan liniyalarini shakllantirish asosida texnologik jarayonlarni loyihalashning axborot va dasturiy ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tikuvchilik korxonalarini avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni loyihalashning mohiyati, uning mazmuni, ahamiyati va raqamlashtirish xususiyatlari to'g'risidagi nazariy qoidalarni o'rganish va tahlil qilish:

tikuvchilik korxonalarini tikuv sexi texnologik jarayonlari uchun mo'ljallangan raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomatlarni tadqiq qilish, assortiment turlari bo'yicha avtomatlashtirilgan liniyalar loyihalarini ishlab chiqish:

axborotlarni klassifikatsiyalash va kodlash tizimlarini tahlil qilish, texnologik jarayonlar uchun axborotlarni kodlash tartibini ishlab chiqish:

tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarini loyihalashning axborot ta'minotini va ishlab chiqarish hajmini, material sarf-harajatlarini rejalashtirish, avtomatlashtirilgan tikuv sexlari texnologik jarayonlarni loyihalash funksiyalariga ega dasturiy ta'minotini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

**Tadqiqotning obyekti** – tikuvchilik korxonalari tikuv sexlarining avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarini loyihalashning axborot ta'minotini shakllantirish jarayonlari.

**Tadqiqotning predmeti** – tikuv sexi texnologik jarayonlari dasturli avtomatlar liniyalarini loyihalash, elektron ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va axborot ta'minotini shakllantirish usullari.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tizimli va funksional- strukturaviy tahlil, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish usullari, ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish, relyatsion ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish usullari qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagidan iborat:

tikuv buyumlari turli assortimentlari uchun avtomatlashtirilgan liniyalarni avtomatlarning geometrik parametrlari va operatorlarning ish zonasi yuzasini aniqlash orqali loyihalash usullari ishlab chiqilgan;

tikuv sexi texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan liniyalar asosida loyihalash uchun avtomatlarning markalari, vazifasi, ish unumdorligi kabi tavsiflarini o'z ichiga oluvchi elektron ma'lumotlar bazalari tuzilmasi va tarkibi ishlab chiqilgan;

avtomatlashtirilgan liniyadagi texnologik operatsiyalar asosida avtomatlar ish zonasini, sonini, operatorlarning ish yuklamasi koeffitsientlarini aniqlashning matematik modellari ishlab chiqilgan;

tikuvchilik korxonalari avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarini boshqarishning raqamlashtirilgan "ASP-Avtomation of sewing production" MES tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagidan iborat:

raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomatlarni geometrik parametrlariga asosan tikuv sexida joylashtirish va operator ish joylarini loyihalash usullari ishlab chiqildi;

assortiment turiga bog'liq holda dasturli avtomatlar liniyalari, avtomatlashtirilgan sex planlari loyihalari ishlab chiqildi;

dasturli avtomatlar va avtomatlashtirilgan liniyalar elektron ma'lumotlar bazalari ishlab chiqildi; dasturiy tizimda tikuv sexida texnologik jarayonlarning soatlik, kunlik, haftalik va oylik kalendar rejalarini ishlab chiqish funksiyalari shakllantirildi;

texnologik jarayonlarni loyihalashda dasturiy tizimdan foydalanish, yangi ma'lumotlarni kiritish, yangilash, uzatish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada eksperimental tadqiqotlar statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini taqqoslash, ularning baholash mezonlariga muvofiqligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro muvofiqligi, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish bilan asoslanadi.

**Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati avtomatlashtirilgan tikuvchilik liniyalarini loyihalashning axborot ta'minotini nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishdan iborat bo'lib, xususan: avtomat va operatorning ish joyini loyihalashning matematik modellarini ishlab chiqish; texnologik liniya tarkibida bir-funksiyali va ko'p-funksiyali

avtomatlarni optimal joylashtirish usullarini asoslash; loyihalash jarayonining axborot ta'minoti uchun ma'lumotlar bazasining tuzilishi va tarkibini shakllantirish.

Ishning amaliy ahamiyati tikuvchilik korxonalarida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalashning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va joriy etishdan iborat bo'lib, bu tikuv sexida texnologik jarayonlarni loyihalash, nazorat qilish, mahsulot sifatini oshirish, tannarxini pasaytirish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarini loyihalashning axborot ta'minoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“ASP Avtomation of sewing production” MES tikuvchilik korxonalarini faoliyatini loyihalash va boshqarish dasturiy tizimi “Daka Intex” MChJ va “Narim-Teks” MChJ texnologik jarayonlarida joriy qilingan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2025 yil 7-avgustdagi №04125-1943-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yangi modellarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash sarf vaqti qisqarishi va mehnat unumdorligining 40%gacha oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib 3 ta Skopus va Web of Science bazalaridagi ilmiy jurnallarda maqola, 3 ta OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda va 6 ta xalqaro, mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilgan. Dasturiy ta'minot loyihalari va elektron ma'lumotlar bazalari rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi 3 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, iqtisodiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.




## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mutanosibligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Industriya – 4.0. Texnologik jarayonlarni raqamlashtirish bosqichida tikuvchilik korxonalarini faoliyatini kompleks avtomatlashtirishning ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobida tikuvchilik korxonalarida avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni loyihalashning axborot ta'minotini ishlab chiqish mavzusida ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili, “NewTech”, “RoboTech”, “VitoniTech”, “DMS Texnology” firmalarining tikuv buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan dasturli avtomatlari tahlili, turli assortimentdagi tikuv buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan liniyalar tahlili natijalari keltirilgan. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimlari PLM-tovarning hayotiylik siklini boshqarish, ERP-korxonalar resurslarini boshqarish, MES - ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari tahlili, tikuvchilik sanoati texnologik jarayonlarini loyihalash, boshqarish, rejalashtirish dasturiy tizimlari tahlili, axborotni kodlash, tasniflash tizimlarining tartibi ko'rib chiqilgan.


Dissertatsiya ishi mavzusiga oid bo'lgan tikuv buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari uchun axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra tikuv sexidagi texnologik jarayonlarni loyihalashda bir funktsiyali va ko'p funktsiyali raqamli dasturli boshqarish avtomatlashtirilgan liniyalarini loyihalash jarayonlari uchun axborot ta'minotini ishlab chiqish muhim yo'nalishlardan biri ekanligi aniqlandi. Avtomatlashtirilgan liniyalarini loyihalash jarayonlari tikuv buyumlari qismlariga ishlov berish texnologik tartibi va avtomatning asosiy ko'rsatkichi ismenalik ish unumdorligi asosida avtomatlarni tanlash, konstruktiv parametrlari bo'yicha joylashtirish, operator ish o'rinlarini loyihalash bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qiladi.

Dissertatsiya ishida raqamli dasturli boshqarish tizimidagi bir funktsiyali va ko'p funktsiyali tsiklik-shablonli avtomatlarning umumiy nisbati o'rganildi. Hozirda aksariyat bir funktsiyali dasturli avtomatlar ishlab chiqaradigan konsernlarga “RoboTech” (bir funktsiyali avtomatlar 98%, ko'p funktsiyali avtomatlar 2%, “NewTech” (82% va 18%), “AutoSew” (96% va 4%), “Vitoni Tech” (100% bir funktsiyali avtomatlar), “DMS Texnology” (83% va 17%), “Durkopp Adler” (58% va 42%), “Juki” (61% va 39%) va asosan siklik - shablonli avtomatlar ishlab chiqaradigan “Jack” (11% va 89%), “Joyye” (7% va 93%) “Zoje” (37% va 63% ) konsernlari kiradi (1-rasm).



**1-rasm. Raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomatlar nisbati tahlili.**

“Durkopp Adler” firmasining djins kiyimini ishlab chiqarishga mo’ljallangan avtomatlashtirilgan liniyalari tahlil qilindi. Liniyada djins kiyimlarning old va ort bo’laklarini birlashtirishga mo’ljallangan 261-160362 dasturli avtomati 8 soatda o’rtacha 720 ta kiyim detallariga ishlov beradi. Tahlil natijalariga ko’ra eng yuqori ish unumdorligiga ega bo’lgan 906-TUP-BRI avtomatik qurilma smena davomida 2500 ta qoplama cho’ntakka qirqimlarini bukib ishlov beradi (2-rasm). 906-TUP-Quadri markali avtomat qurilma cho’ntak chetki qirqimlarini bukib ishlov berishga mo’ljallangan bo’lib, ish unumdorligi 1 smenada 1700 ta. Qoplama cho’ntakka ishlov berishga mo’ljallangan 906-01 markali avtomat 1 smenada 1900 dona cho’ntakka ishlov beradi.



**2-rasm. Djins kiyimlarini ishlab chiqarish avtomatlashtirilgan liniyasining ish unumdorligi tahlili.**


Tahlillar natijalariga asosan tikuvchilik korxonalarida yuqori sifat va ish unumdorligiga ega zamonaviy raqamli dasturli boshqarish tizimidagi Avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash jarayonining axborot ta'minotini ishlab chiqish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan biri ekanligi aniqlandi, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning **“Tikuv sexlarining avtomatlashtirilgan liniyalarini loyihalash jarayonlarini tadqiq qilish”** mavzusidagi II-bobida “NewTech”, “RoboTech”, “Vitoni-New”, “Durkopp Adler”, “Juki”, “DMS Texnology” kabi konsernlar dasturli avtomatlari ma'lumotlari tizimlashtirilgan. Avtomatlashtirilgan liniyalarda dasturli avtomatlar va operatorlar ish o'rinlarini loyihalash masalalari tadqiq qilingan. Avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash uchun asosiy ma'lumotlar shakllantirilgan, texnologik jarayonlarni loyihalashning funksional-strukturaviy modeli ishlab chiqilgan, turli assortimentdagi tikuv buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan liniyalar sex plani loyihalari ishlab chiqilgan.

“Joyee” va “RoboTech” firmasi raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomat liniyalari ko'rsatkichlari asosida korxonalarining ishlab chiqarish parametrlari tadqiq qilindi.


Avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash uchun assortiment turi, bir funksiyali va ko'p funksiyali avtomatlar vazifasi, ish unumdorligi, konstruktiv tuzilishi va geometrik o'lchamlari to'g'risida ma'lumotlar zarur. Avtomatlashtirilgan liniyada raqamli dasturli avtomatlar umumiy sonini aniqlash korxonaning kunlik ishlab chiqarish quvvati asosida aniqlanishi yoki avtomatlarning ish unumdorligi asosida korxonaga quvvati belgilanishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan liniyalarning ishlab chiqarish parametrlarini hisoblash uchun JY-K850H “Joyee” firmasining tsiklik-shablonli avtomatida kiyimga ishlov berish sarf vaqti tahlil qilinganda old bo'lakka qoplama cho'ntakni bostirib tikish operatsiyasiga 18 sekund vaqt sarflanishi aniqlandi (3-rasm).




**3-rasm. JY-K850H “Joyee” firmasining siklik shablonli avtomatida kiyimga ishlov berish sarf vaqti tahlili.**

Tadqiqot ishida RDBT avtomatlarni ish o'rinlarini loyihalash masalalari ko'rib chiqildi. Avtomatlarni joylashtirishda buyumga ishlov berish texnologik ketma-ketligi asosida joylashtiriladi. Bunda liniyaga nisbatan ko'ndalang yoki parallel joylashtirish mumkin (4-rasm).




**4-rasm. RDBT avtomatlar ish joyini tikuv buyumini ishlab chiqarish texnologik liniyasiga parallel joylashtirish.**

RDBT avtomatlar konstruktiv tuzilishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi, bu turdagi avtomatlarda ishlov berilgan detalni olib taxlash uchun maxsus qurilmalari o'rnatiladi. Operatorni ish zonasida erkin harakatlanishini ta'minlash zarur, operator boshqarish paneli orqali avtomatni ishga tushirib tikish yuzasiga detallarni uzatishi – joylashtirishi lozim. Avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalashda sex yuzasini shartli A,B,S,D qismlarga ajratildi. A – mayda detallarga ishlov berish liniyasi; B – kiyim detallarini yig'ish, S – namlab isitib ishlov berish, D – tayyor buyumlarni avtomatik tahlash stansiyalari (5, 6-rasmlar)



**5-rasm. "Vitoni" firmasining erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirgan liniyasi loyihasi.**

**AL parametrlari**  
**Assortiment turi:**  
**Erkaklar ko'ylagi.**  
**AL turi:**  
**Tsiklik shablonli**  
**"JOYEE "JY-**  
**K850H RDBTA.**  
**Sex yuzasi:**  
**S=24\*24=576m<sup>2</sup>**  
**Ishlab chiqarish**  
**quvvati:**  
**M=2100 ta**  
**Umumiy ishchilar**  
**soni:N=32 ishchi.**  
**Operatorlar soni:**  
**N=28 ishchi.**  
**A zona-Umumiy**  
**yig'ish zonasini**  
**B zona-NIIB**  
**c zona-tayyor**  
**buyumlarni**  
**avtomatik taxtash**  
**stansiyasi**



**6-rasm. K850H "Joyee" firmasining erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarishga mo'ljallangan siklik - shablonli avtomat liniyasi sex plani.**

“Tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarini avtomatlashtirishning axborot ta'minoti tuzilmasi va tarkibini ishlab chiqish” mavzusidagi III-bobda texnologik jarayonlarni loyihalash uchun axborot ta'minoti tizimi va ma'lumotlar bazalari uchun axborotlarni kodlash, tasniflash tartibi shakllantirilgan, ma'lumotlar bazasi boshqarish tizimi strukturasi va foydalanuvchi interfeysi ishlab chiqilgan, tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarini avtomatlashtirishning ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan, “ASP-Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimining elektron ma'lumotlar bazasi strukturasi chiqilgan, ekspert baholash so'rovnomalari asosida tadqiqot ob'ektiga ta'sir qiluvchi asosiy faktorlar aniqlangan, avtomatlashtirilgan liniyalarda dasturli avtomat ish o'rinlarini loyihalash jarayoni matematik modellashtirilgan va avtomat liniyalarini loyihalash jarayonlarini modellashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy tikuvchilik korxonalarida texnologik jarayonlarni samarali va tezkor loyihalash uchun axborot ta'minotining roli juda katta. Axborot ta'minoti (AT) — bu loyihalash jarayonida ishtirok etuvchi barcha funksiyalar va bosqichlar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydigan tizimlar va ma'lumotlar majmuasidir (7-rasm). Bu tizim yuqori aniqlik, tezkor hisob-kitob va qaror qabul qilish imkonini beradi. Tikuvchilik korxonalarini ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli dasturli boshqarish (RDB) tizimidagi avtomatlashtirilgan liniyalar tobora ko'proq joriy etilmoqda, bu esa texnologik jarayonlarni (TJ) loyihalashni yetarli darajada axborot bilan ta'minlashni talab qiladi. Loyihalash samaradorligini oshirish uchun ATni boshlang'ich

ma'lumotlardan tortib, RDB uskunalarini boshqarish dasturlarini shakllantirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi tizim sifatida rasmiylashtirish va modellashtirish zarur (7-rasm).

RDBTA liniyalarni loyihalash jarayonlari uchun kiruvchi ma'lumotlariga  $I_{kir}$  quyidagilar

$$I_{kir} = \{M_{y.b.}; M_{tex.esk.}; T_{oper.}; M_{mater.}; L_{AL.kon.}\} \quad (1)$$

Kiruvchi ma'lumotlar:  $M_{y.b.}$  – yangi buyurtmalar (model nomi, ishlab chiqarish hajmi, muddati);  $M_{tex.esk.}$  – model texnik eskizi;  $T_{oper.}$  – texnologik operatsiyalar ro'yxati;  $M_{mater.}$  – materiallar turi, ko'rsatkichlari;  $L_{AL.kon.}$  – avtomat liniyaning konfiguratsiyasi.

Jarayonning chiquvchi ma'lumotlarini  $I_{chiq.}$  quyidagilar tashkil qiladi:

$$I_{chiq.} = \{T_{tex.karta}; A_{al.loyixa.}; I_{ich.par.}; R_{reja} S_{mater.}; X_{xisobot}\} \quad (2)$$

$T_{tex.karta}$  – modelning texnologik kartasi;

$A_{al.loyixa.}$  – RDBT avtomat liniyalari loyihalari;

$I_{ich.par.}$  – ishlab chiqarish parametrlari;


$R_{reja}$  – ishlab chiqarishni rejalashtirish dasturi (oylik, kunlik, soatlik);

$S_{mater.}$  – material sarfi xarajatlari;

$X_{xisobot}$  – tahlil hisoboti.

*I<sub>kir.</sub>- Modellar eskizlari, tayyor buyum namunalari*

*I<sub>kir.</sub>- Kirish parametrlari (M<sub>y.b.</sub> – yangi buyurtmalar model nomi, ishlab chiqarish hajmi, muddati; M<sub>tex.esk.</sub> – model texnik eskizi; T<sub>oper.</sub> – texnologik operatsiyalar ro'yxati; M<sub>mater.</sub> – materiallar turi, ko'rsatkichlari; L<sub>AL.kon.</sub> – avtomat liniyaning konfiguratsiyasi.*



*I<sub>kir.</sub>- Bajaruvchilar, dasturiy va texnik ta'minotlar*

### 7-rasm. Texnologik jarayonlarni loyihalashning axborot ta'minoti tizimi.

MES tizimida axborot ta'minoti ma'lumotlari uch asosiy funksiya - kiritish, yangilash va uzatish funksiyalari asosida boshqariladi:

1. Axborotlarni kiritish funksiyasi:

$$DB_{\{MES\}} = DB_{\{MES\}} U \{M_y, M_k, T_i, M_t\} \quad (3)$$

Bu yerda  $DB_{\{MES\}}$  — MES ma'lumotlar bazasi, U — ma'lumotlarni qo'shish operatsiyasi.

2. Axborotlarni yangilash funksiyasi:

$$M_{\{new\}} = Update(M_{\{old\}}, \Delta M) \quad (4)$$

Bu yerda  $M_{\{old\}}$  — mavjud ma'lumot,  $\Delta M$  — o'zgarishlar,  $M_{\{new\}}$  — yangilangan holat.

3. Axborotlarni uzatish funksiyasi:

$$P_{\{ERP\}} = f_{\{ERP\}}(M_y, R_o, Z_m) \quad (5)$$

$$P_{\{CNC\}} = f_{\{CNC\}}(T_i, M_k) \quad (6)$$


Bu funksiyalar ma'lumotlarni tegishli tizimlarga formatlash va uzatishni amalga oshiradi. Axborot ta'minotini PLM, ERP va CNC tizimlari bilan bog'lash uchun RESTful API, JSON/XML formatidagi ma'lumotlar almashinuvi protokollari ishlatiladi. Bu interfeyslar orqali ma'lumotlar real vaqtda qayta ishlanadi va avtomatik holda integratsiya qilinadi.

Axborot arxitekturasi umumiy modeli axborot ta'minoti va MES tizimi o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish to'liq avtomatlashtirilgan ma'lumot oqimini ta'minlaydi:


$$I_{out} = f(M_y, M_k, T_i, M_t) \rightarrow DB_{\{MES\}} \rightarrow [ERP, CNC] \quad (7)$$

MES tizimi bilan axborot ta'minotini integratsiya qilish natijasida tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni raqamlashtiriladi, aniq hisob-kitoblar, tezkor boshqaruv va ishlab chiqarishni optimallashtirish ta'minlanadi. Bu model raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, modulli CNC liniyalarini boshqarish va umumiy resurslarni tejash imkoniyatini beradi.

“ASP-Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimining elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda dastlab ma'lumotlar bazasi - MBning tuzilmasi shakllantirildi. Ma'lumotlar bazasi uchun kodlash tizimi ishlab chiqildi. Asosiy bazaviy model erkaklar pidjagi misolida kodlandi. Misol uchun kod 001-Erkaklar klassik pidjagi. Navbatdagi klassik pidjaklar modellari xam ma'lum tartibda kodlandi – Asosiy bazaviy model: 001-1-Erkaklar klassik pidjagi. Asosiy bazaviy model: 001-1-2-Erkaklar klassik pidjagi. Bu pidjak modellari bir-biridan faqat yoqasi shakli bilan farqlanadi (8,9-rasm). Berilgan tartibda kodlash ma'lumotlarni bazadan izlash, yuborish, o'zgartirish kiritish jarayonlari uchun juda muhim.




**8-rasm. Asosiy bazaviy model: 001-1-Erkaklar klassik pidjagi. Asosiy bazaviy model: 001-1-2-Erkaklar klassik pidjagi**



**9-rasm. MBBTda avtomat liniyalar, tikuv buyumi turi, gazlama turi to'g'risidagi ma'lumotlar strukturasi – tuzilmasi.**


Tadqiqot ishida turli assortimentdagi kiyimlar modellari uchun “RoboTech”, “NewTech”, “AutoSew”, “Vitoni”, “Durkopp Adler” firmalarining avtomatlashtirilgan liniyalari ishlab chiqildi. Avtomatlashtirilgan liniyalarning axborot ta'minotining ma'lumotlar bazasi uchun maxsus kodlar asosida kodlandi (10-rasm).



**10-rasm. Erkaklar sorochkasini ishlab chiqarishga mo'ljallangan “RoboTech” firmasining RDBT avtomatlashtirilgan liniyasi.**



“StatGraphics” amaliy dasturida tikuvchilik korxonasida avtomatlashtirilgan liniyalarda dasturli avtomat ish o‘rinlarini loyihalash jarayoni jarayoni matematik modellashtirildi (11,12-rasm). Bunda Y - kriteriy ya’ni avtomatlashtirilgan liniyada dasturli avtomat ish maydoni, unga ta’sir qiluvchi asosiy omillar X1- Dasturli avtomatning gabarit o‘lchamlari, mm.; X2 - Dasturli avtomat vazifasi, assortiment turiga bog‘liq holda qo‘yiladigan stollar soni, dona.; X6 - Operator uchun o‘tish yo‘llarini hisobga olgan holda sanitar normasi - f, m<sup>2</sup>.



11-rasm. “StatGraphics” amaliy dasturida bir faktorli grafik tahlil

Ko‘p faktorli regressiya tenglamasining umumiy ko‘rinishi:

$$Y = b_0 + b_1X_1 + b_2X_2 + \dots + b_pX_p,$$

Bu yerda Y – bog‘liq o‘zgaruvchi, X1, X2, ..., Xp – mustaqil o‘zgaruvchi, a b0, b1, b2, ..., bp – regressiya koeffitsiyentlari.

$$Y = f(X_1, X_2, X_3, \dots, X_n) \quad Y = f(X_1, X_2, \dots, X_6).$$


Y - DA<sub>ish maydoni</sub> va uchta mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflash uchun regressiya modeli tenglamasi:

$$Y = - 0,556627 + 0,647179 \cdot X_1 + 0,206103 \cdot X_2 + 0,393312 \cdot X_6$$

$$DA_{ish\ maydoni} = - 0,556627 + 0,647179 \cdot \text{Dasturli avtomat gabarit olchami} + 0,206103 \cdot \text{Stollar soni} + 0,393312 \cdot \text{Sanitar norma}.$$


Dissertatsiyaning IV-bobi “Avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni loyihalashning axborot ta’minotini ishlab chiqish” mavzusida bo‘lib dasturiy tizim

loyihada buyurtmalarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini rejalashtirish funksiyalarini ishlab chiqish, tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarda avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash jarayoni axborot ta'minotining asosiy funksiyalarini shakllantirish, "ASP-Avtomation of sewing production" MES dasturiy tizimining interfeysini loyihalash, dasturiy tizimida ishlab chiqarish jarayonlarida axborotlarni uzatish, yangilash va nazorat qilish tizimini ishlab chiqish masalalari o'z echimini topgan. Tikuv sexi avtomatlashtirilgan liniyalarining iqtisodiy samaradorligi va tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlarni loyihalashda "ASP-Avtomation of sewing production" MES dasturiy tizimini joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlik natijalari keltirilgan.



## 12-rasm. "StatGraphics" amaliy dasturida ko'p faktorli grafik tahlil.

"ASP-Automation of Sewing Production" MES dasturiy tizimining asosiy funksiyalaridagi axborot oqimlari va ma'lumotlar uzatilishi sxemasi ishlab chiqildi (13-rasm). Ushbu sxemada dasturiy tizimning asosiy funksiyalari o'rtasidagi axborot oqimlari, ya'ni ma'lumotlar hisobotlar, tahlil natijalari ko'rinishida uzatilishi belgilab ko'rsatildi. Yangi buyurtmalarni ishlab chiqishning tikuv tsexidagi texnologik jarayonlarini avtomat liniyalar asosida loyihalash bosqichlari shakllantirildi.





**13-rasm. “ASP-Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimining asosiy funksiyalaridagi axborot oqimlari va ma'lumotlar uzatilishi sxemasi.**



Dasturiy tizim interfeysini loyihalashda ko'rib chiqilgan asosiy 8ta funksiya va ularning tarkibiy bo'limlari shakllantirildi. Bu funksiyalar tikuvchilik korxonalarini faoliyatini tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish, assortiment o'zgarishi bilan bog'liq axborotlarni kiritish, yangilash va uzatish kabi funksiyalarni ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida tikuvchilik korxonalarini faoliyatini loyihalash va boshqarish “ASP Automation of sewing production” MES dasturiy tizimi interfeysi ishlab chiqildi. Dasturiy tizim asosiy panelida “Tilni tanlash”, “Izlash”, “Ro'yxatdan o'tish”, “Tizimga kirish” kabi funksiyalar joylashtirildi (14,15-rasm).

Raqamli dasturli avtomatlar va avtomatlashtirilgan tikuv sexi plani ma'lumotlari dasturiy tizim ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.



**14-rasm. “ASP Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimida foydalanuvchi ma’lumotlarini kiritish menyusi.**



**15-rasm. “ASP Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimi asosiy panelining avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash funktsiyasi elementlari.**

Dasturiy tizim asosiy panelida tikuvchilik korxonalarida texnologik jarayonlarni loyihalash uchun zarur funktsiyalar kiritildi. Dasturiy tizimda tayyor buyum sortini - navini hisobga olgan xolda buyurtmani ishlab chiqarish umumiy hajmini va muddatlarini hisoblash mumkin. Buyurtma hajmini mahsulot sortini - 8% hisobga olgan xolda rejalashtirish funktsiyasi kiritildi. Ishlab chiqilgan dasturiy tizim loyihasi buyurtma xajmini rejalashtirishda dastur mahsulot navini umumiy ishlab chiqarish hajmiga 8% nisbatda hisoblaydi.

Maxsulot sifati navini hisobga olgan holda ishlab chiqarish umumiy hajmi va yangi modellarni konstruktiv-texnologik tayyorlash, xom ashyolarni rejalashtirishni muddatlarini hisobga olgan xolda umumiy ishlab chiqarish muddatini aniqlash tartibi dasturga quyidagi formulalar bo'yicha kiritildi.

Ishlab chiqarish hajmini aniqlash formulasi:

$$M_{um.xajmi} = M_{buyurtma} + (M_{buyurtma}/100 * 8) \quad (8)$$

Bu yerda:  $M_{um.xajmi}$  - mahsulotni ishlab chiqarishning umumiy hajmi, dona;  $M_{buyurtma}$  - buyurtma soni, dona.

Ishlab chiqarish muddatini aniqlash formulasi:

$$T_{kun} = 7 + (M_{um.xajmi}/N_{ishchilar\ soni} * 1\ Ishchi_{mexnat\ unumdorligi}) \quad (9)$$

Bu yerda:  $T_{kun}$  – umumiy ishlab chiqarish muddati, kun;

$M_{um.xajmi}$  - mahsulotni ishlab chiqarishning umumiy hajmi, dona;  $N_{tikuvchilar\ soni}$  – tikuv sexidagi ishchilar soni;

$1\ Ishchi_{mexnat\ unumdorligi}$  - bitta ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi.

“ASP – Automation of Sewing Production” dasturiy tizimidagi ma'lumotlar bazalari tikuvchilik ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi axborot infratuzilmasining asosiy elementi sifatida shakllantirildi. Avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni loyihalash uchun “ASP-Avtomation of sewing production” MES dasturiy ta'minoti ishlab chiqildi. Bu dastur kiyim modeli texnik eskizi yoki namunasi asosida modelning tannarxini aniqlash, ishlab chiqarish dasturini tuzish va tikuv sexining avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash imkonini beradi.

## XULOSALAR

1. Raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomatlar ma'lumotlari tikuv buyumlari uzellariga ishlov berish vazifasiga asosan tizimlashtirildi. Dasturli avtomatlarning konstruktiv parametrlari, geometrik o'lchamlari asosida ish o'rinlari, qo'shimcha stollar va operator ish joylari loyihalari ishlab chiqildi.

2. Avtomatlashtirilgan liniyalarda operatorlar sonini aniqlash va texnologik yuklamani taqsimlash, bitta operatorga bir nechta avtomatlar birlashtirilishi ish yuklamasi koeffitsientlari aniqlandi.

3. Avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalashning asosiy ko'rsatkichlarini ya'ni bitta avtomat liniya uchun ish maydoni yuzasini aniqlash, avtomatlashtirilgan liniyada avtomatlar turlari va sonini aniqlash, ishlab chiqariladigan mahsulotning umumiy hajmini aniqlash modellari ishlab chiqildi.

4. Raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomatlashtirilgan liniyalarni loyihalash, avtomatlarni joylashtirish va operator ish o'rinlarini loyihalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

5. Tikuvchilik korxonalarini texnologik jarayonlari axborotlarini kodlash, tasniflash tizimlarining karakteristikalarini kompleks tahlil qilindi. Axborotlar tuzilmasi va tarkibi shakllantirildi. Tikuv buyumlari assortimentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kodlash, tasniflash tartibi va ma'lumotlar bazasi tarkibi, tuzilmasi ishlab chiqildi.

6. “ASP-Avtomation of sewing production” MES dasturiy tizimining interfeysi

loyihasi va elektron ma'lumotlar bazasining tuzilmasi ishlab chiqildi. Dasturiy tizim loyihasida asosiy funksiyalar panellari, har bir operatsiyaning tarkibiy qismlari loyihalandi. Buyurtmalarni qabul qilish, buyurtma iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ishlab chiqarish bilan bog'liq texnologik jarayonlarni loyihalash, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilish kabi asosiy funksiyalar kiritildi.

7. "ASP-Avtomation of sewing production" MES dasturiy tizimining raqamli dasturli boshqarish tizimidagi avtomat liniyalari ma'lumotlar bazalari shakllantirildi. Tikuv buyumlari assortimentiga ko'ra avtomat liniyalardagi xar bir avtomatning vazifasi, texnik parametrlari kabi ma'lumotlar MBda ma'lum tartibda kodlangan tarzda joylashtirildi.

8. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari amaldagi mahsulot erkaklar kostyumini ishlab chiqarish jarayoniga avtomatlashtirilgan liniyalarni tatbiq etilishi natijasida ish o'rinlari sonining va mehnat sarfining kamayishi hisobiga mahsulot tannarxi 28545 so'mga kamayishiga va buning natijasida qo'shimcha 21062 so'm foyda olinishiga erishiladi. Rentabellik darajasi 7,28 % ga oshishi kuzatildi. "ASP-Avtomation of sewing production" MES dasturiy tizimining texnologik jarayonlarga joriy qilinishi uchun sarf-xarajatlar 36 324 000 so'mga teng bo'lib, loyihalash vaqtining qisqarishi natijasida bir yilda 89 004 000 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**КАБИЛОВА ДИЛРАБО САЛОХИДИНОВНА**

**РАЗРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
ПРОЕКТИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ШВЕЙНЫХ  
ПРЕДПРИЯТИЙ**

**05.06.04-Технология швейных изделий и дизайн костюма**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций за B2024.3.PhD/T4711.**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Базарбаева Гузал Гулимовна**  
кандидат технических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Абдукаримова Машхура Абдураимовна**  
доктор технических наук, доцент

**Темирова Гулноз Ибодовна**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 23 января 2026 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании научного совета DSC.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шахджахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: [pochta@ttyesi.uz](mailto:pochta@ttyesi.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (регистрационный номер №269). Адрес: 100100, Ташкент, Шахджахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 07-января 2026 года.  
(реестр протокола рассылки №269 от 07-января 2026 года)



**Х.Х. Камилова**  
Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.З. Маматов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**Н.Р. Ханходжаева**  
Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире ожидается увеличение ассортимента продукции легкой промышленности на 25 %, что свидетельствует о ежегодном росте спроса на данную продукцию. К числу ведущих государств — производителей продукции легкой промышленности относятся США, Китай, Индия, Япония, Индонезия и другие страны. В мировом масштабе объём текстильного рынка в 2024 году составил 1,840 трлн. долларов США, а в 2025 году этот показатель достиг 1,976 трлн. долларов. В этой связи увеличение объёмов производства готовой продукции в швейной промышленности, разработка новых ассортиментов продукции лёгкой промышленности, в частности с учетом современных направлений, а также устойчивое развитие швейной отрасли имеют важное значение для диверсификации национальной экономики и повышения экспортного потенциала страны.

В мировом масштабе при производстве продукции легкой промышленности ведутся научно-исследовательские работы, направленные на рациональное использование природного сырья, а также на совершенствование новой техники и технологий при разработке новых ассортиментов продукции легкой промышленности. В данном направлении одним из приоритетных считается проектирование, планирование, контроль технологических процессов и мониторинг их выполнения в режиме реального времени на основе информационных систем, разработанных с использованием современных цифровых платформ. В этой связи особое внимание уделяется развитию научных основ производства продукции лёгкой промышленности, созданию и внедрению систем автоматизированных линий (Computerized Automated Sewing Lines — CASL), обеспечению стабильного качества продукции, сокращению потребности в рабочей силе, а также разработке, теоретическому обоснованию и рекомендации технологических решений по снижению расхода сырья и созданию новых ассортиментов продукции лёгкой промышленности с низкой материалоемкостью и высокими показателями качества.

В Республике реализуются комплексные меры по развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также по поддержке инвестиционной и экспортной деятельности предприятий отрасли, в результате чего достигаются определённые положительные результаты. В Стратегии развития Республики Узбекистан на 2023–2030 годы «Узбекистан–2030», в частности, определены такие важные задачи, как «эффективное использование местной сырьевой базы и развитие промышленности на основе передовых технологий». В процессе реализации данных задач, в том числе, особое значение приобретает организация деятельности швейных предприятий по оперативному и оптимальному запуску процессов производства новой продукции в соответствии с требованиями мировых стандартов, проектирование современных средств и оборудования, а именно автоматизированных линий с программным управлением,

обеспечивающих гибкость ассортимента в технологических процессах производства, широкое внедрение цифровых технологий, а также разработка информационного обеспечения проектирования автоматизированных технологических процессов швейных предприятий, что является одной из актуальных и приоритетных задач.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан: от 5 мая 2020 года № PF-5989 «О неотложных мерах по поддержке текстильной и швейно-трикотажной промышленности», от 28 января 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 1 мая 2024 года № PF-71 «О мерах по выводу развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности на новый этап», от 16 января 2025 года № PF-6 «О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности», а также иных нормативно-правовых актов, относящихся к данной сфере деятельности.

**Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Исследования по диссертационной работе выполнены в рамках II приоритетного направления «Энергетика, энергия и ресурсосбережение» развития науки и технологий.

